

OTA-ONALAR O’RTASIDAGI NIZOLAR, MUAMMOLARNING BOLALAR RUXIYATIGA TA’SIRI “

Andijon davlat pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi
Shukurova Iminur Baxtiyorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy va amaliy fanlar" fakulteti
1-bosqich talabasi Jo'raboyeva Odinoxon No'monjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410947>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-ona o’rtasidagi nizolar va oiladagi muammoli vaziyatlarning bolalar ruhiyatiga ko’rsatadigan psixologik ta’siri tahlil qilinadi. Oiladagi kelishmovchiliklar, janjallar va ziddiyatli muhit bolalarning hissiy holati, xulq-atvori hamda ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Tadqiqot davomida ota-onalar o’rtasidagi nizolar sababli bolalarda yuzaga keladigan qo’rquv, xavotir, tajovuzkorlik va o’ziga ishonchsizlik kabi holatlar yoritilgan. Shuningdek, bolalarning sog’lom ruhiy rivojlanishi uchun oilada ijobiy muhit yaratish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: oila, ota-ona nizolari, bola psixologiyasi, ruhiy holat, oilaviy muhit, tarbiya, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние конфликтов между родителями и семейных проблем на психическое состояние детей. Семейные конфликты, напряжённая атмосфера и постоянные ссоры могут негативно влиять на эмоциональное состояние, поведение и социальное развитие ребёнка. В исследовании освещаются такие психологические последствия, как страх, тревожность, агрессивность и неуверенность в себе у детей, возникающие вследствие семейных конфликтов. Также подчёркивается важность создания благоприятной семейной среды для гармоничного развития ребёнка.

Ключевые слова семья, родительские конфликты, детская психология, эмоциональное состояние, семейная атмосфера, воспитание, социальное развитие.

Abstract: This article examines the impact of conflicts between parents and family problems on children's psychological well-being. Family conflicts, tense environments, and constant arguments can negatively affect a child's emotional state, behavior, and social development. The study highlights psychological consequences such as fear, anxiety, aggression, and lack of self-confidence in children caused by parental conflicts. The importance of creating a positive family environment for the healthy psychological development of children is also emphasized.

Keywords: family, parental conflict, child psychology, emotional state, family environment, upbringing, social development.

Kirish. Jahon miqyosida oila jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy ustuni bo’lgan eng muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhit katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ota-ona o’rtasidagi munosabatlar bolaning ruhiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Agar oilada nizolar, janjallar va tushunmovchiliklar ko’p bo’lsa, bolalarda quyidagi ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin: qo’rquv va havotir hissining kuchayishi, o’ziga bo’lgan ishonchning pasayishi, tajovuzkorlik yoki aksincha haddan tashqari tortinchoqlik, ruhiy tushkunlik va stress. Bu bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shu bois ota-ona o’rtasidagi nizolarning bolalar ruhiyatiga ta’siri bugungi kunda nafaqat psixologiya, balki jamiyat taraqqiyoti

bilan bog‘liq dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, Global miqyosda World Health Organization (WHO) ruhiy salomatlikni inson salomatligining ajralmas qismi deb hisoblaydi. Ushbu tashkilot tadqiqotlariga ko‘ra, sog‘lom psixologik rivojlanish uchun barqaror va tinch oilaviy muhit muhim omillardan biri hisoblanadi [1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilada o‘zarohurat, g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlash tamoyillari asosiy qadriyat sifatida belgilangan [2]. Shu sababli ota-ona o‘rtasidagi nizolarning bolalar ruhiyatiga ta’sirini o‘rganish zamonaviy psixologiya fanining muhim tadqiqotlar yo‘nalishlaridan biridir. Ota-ona o‘rtasidagi nizolar bolalarda turli xil psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu borada ko‘plab psixolog olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan, bulardan amerikalik psixolog Murray Bowen o‘zining oilaviy tizimlar nazariyasida oilani yagona emotsional tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ota-ona o‘rtasidagi keskin munosabatlar bolaga ham bevosita o‘tadi va unda xavotir, qo‘rquv kabi hissiy holatlar shakllanadi [3].

Shuningdek, Urie Bronfenbrenner o‘zining ekologik tizimlar nazariyasida bolaning rivojlanishida eng yaqin muhit - oila hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi [4]. Agar oilada nizolar ko‘p bo‘lsa, bu bolaning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir qiladi.

Psixologlar John Bowlby va Mary Ainsworth tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bola ota-onasi bilan xavfsiz emotsional aloqa o‘rnata olmasa, unda ishonchsizlik, yolg‘izlik va ruhiy beqarorlik rivojlanadi. Oiladagi doimiy janjallar esa bu bog‘lanishning buzilishiga olib keladi [5].

Bundan tashqari, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar kattalarning xulq-atvorini kuzatish orqali o‘rganadilar [6]. Agar bola ota-onasining nizoli, tajovuzkor munosabatlarini ko‘rsa, u ham kelajakda shunday xulqni takrorlashi mumkin.

O‘zbek psixolog olimlari ham bu masalaga alohida e’tibor qaratgan. Jumladan, G‘.B. Shoumarov tadqiqotlarida oiladagi nosog‘lom muhit bolaning emotsional rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, unda o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy muammolar paydo bo‘lishi qayd etilgan.

Psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish orqali bu salbiy ta’sirlarning oldini olish mumkin. Bunda o‘zaro hurmat, ochiq muloqot, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish muhim ahamiyatga ega. Demak, ota-ona o‘rtasidagi nizolar bolalar ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi sog‘lom muhit bolalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarurdir.

Oiladagi nizoli vaziyatlar bolaning ruhiy rivojlanishiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Eng avvalo, bola uchun oila xavfsizlik va himoya manbai sifatida qabul qilinadi. Agar ushbu muhitda keskinlik, janjal va emotsional beqarorlik hukm sursa, bola o‘zini himoyasiz his qila boshlaydi. Bu holat, ayniqsa, erta yoshdagi bolalarda kuchliroq namoyon bo‘lib, ularning ichki dunyosida xavotir va qo‘rquv hissining shakllanishiga olib keladi. Natijada bola tashqi muhitga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraydi, bu esa uning keyingi ijtimoiy munosabatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ota-ona o‘rtasidagi nizolar bolaning emotsional barqarorligiga jiddiy putur yetkazadi. Bola ko‘pincha nizoning sababini o‘ziga bog‘lab talqin qiladi, o‘zini aybdor his etadi yoki ota-onadan birini himoya qilishga harakat qiladi. Bu esa ichki ziddiyatni kuchaytirib, psixologik zo‘riqishga olib keladi. Bunday vaziyatda bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda eta olmaydi, natijada ichki hissiyotlar bostiriladi yoki noto‘g‘ri shaklda — tajovuzkorlik yoki ijtimoiy chekinish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, oiladagi nizolar bola xulq-atvorining shakllanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Bola kattalarning o‘zaro munosabatlarini kuzatib, nizoni hal qilishning aynan shu modelini o‘zlashtiradi. Agar oilada muammolar keskinlik, baqiriq-chaqiriq yoki tajovuz orqali hal etilsa, bola ham bunday xatti-harakatlarni normal holat sifatida qabul qiladi. Bu esa uning kelajakdagi

shaxslararo munosabatlarida nizolarni konstruktiv emas, balki destruktiv yo’l bilan hal qilishiga sabab bo’lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, oiladagi doimiy nizolar bolaning o’ziga bo’lgan bahosini pasaytiradi. Ota-onaning bir-biriga nisbatan hurmatsizligi, keskin tanqidlari va emotsional sovuqligi bolaga ham bevosita yoki bilvosita o’tadi. Natijada bola o’zini qadrsiz, keraksiz yoki yetarli darajada yaxshi emas deb his eta boshlaydi. Bu esa uning o’qishdagi faolligiga, tengdoshlar bilan munosabatiga va umumiy psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim bolalarda bunday muhitga moslashish mexanizmi sifatida ortiqcha itoatkorlik yoki aksincha, norozilikka asoslangan xulq shakllanishi mumkin. Ba’zi bolalar mojarodan qochish uchun haddan tashqari jim va tortinchoq bo’lib qolsa, boshqalari ichki zo’riqishni tashqi tajovuz orqali ifodalaydi. Har ikki holat ham bolaning sog’lom shaxs sifatida shakllanishiga to’sqinlik qiladi.

Xulosa. Har bir oilada kelishmovchiliklar bo’lishi tabiiy holat. Chunki har bir insonning xarakteri, fikrlashi va hayotga qarashi turlicha. Ammo ota-ona o’rtasidagi nizolar qanday kechishi va qanday hal qilinishi juda muhimdir. Doimiy nizo, janjal va sovuq muhit sababi nafaqat er-xotin balki eng avvalo bolalarning ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Bola oiladagi muhitni yaxshi his qiladi va ko’rgan munosabatlarini kelajak hayotiga ham olib o’tadi. Tinch va mehrga boy oila muhiti bolaning o’ziga ishonchini kuchaytiradi va baxtli inson bo’lib ulg’ayishiga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, oiladagi nizolar faqat vaqtinchalik emotsional holat emas, balki bolaning butun psixologik rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayon uzoq muddat davom etsa, bola shaxsiyatida barqaror salbiy xususiyatlar shakllanishi mumkin. Shu sababli oilaviy muhitni sog’lomlashtirish, ota-onalar o’rtasidagi muloqotni yaxshilash va nizolarni konstruktiv yo’l bilan hal etish nafaqat oila farovonligi, balki kelajak avlodning ruhiy salomatligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghebreyesus T.A. World Health Organization is a specialized agency of the United Nations. -Geneva :Switzerland, 1966.
2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda 1-moddasi. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2021.
3. Murray Bowen “Family Therapy in Clinical Practic”- AQSH Washington: (NIHM), 1978.
4. Urie Bronfenbrenner. “The Ecology of Human Development” /Harvard university press/ 1979. Page-60.
5. Bowlby, J. (1969). Attachment and loss: Vol. 1. Attachment. New York, NY: Basic Books.
6. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
7. Shukurova, I. (2024). Psychological development of social intelligence in adolescence. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(1), 65-69.
8. I.B.Shukurova (2025) “Ko’p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari: zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili” O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1] ISSN 2181-7324. 234-236-b.